

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

XAMDAMOV XAYDAR AZAMATOVICH

**PUBLITSISTIK MATNLARDA ANTROPOMORFIK METAFORANING
KOGNITIV-PRAGMATIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (Phd) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xamdamov Xaydar Azamatovich

Publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik tadqiqi 3

Khamdamov Khaydar Azamatovich

The cognitive-pragmatic study of anthropomorphic metaphor in publicistic texts..... 25

Хамдамов Хайдар Азаматович

Когнитивно-прагматическое изучение антропоморфической метафоры в публицистических текстах..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

XAMDAMOV XAYDAR AZAMATOVICH

**PUBLITSISTIK MATNLARDA ANTROPOMORFIK METAFORANING
KOGNITIV-PRAGMATIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3687 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining (www.adchti.uz) rasmiy saytida hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasrullayeva Gulshan Samadovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Kabuljonova Gulbahor Komiljonovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel.: 0 (374) 223-42-76; faks: 0 (374) 223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel.: 0 (374) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.f.d., professor

A.Dj.Atoboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

Sh.X.Shaxabitdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida metaforalar antropotsentrik jihatdan o'rganilib, turli turlarga ajratilmoqda. Antropomorfik metaforalarning alohida tadqiqiga doir ilmiy izlanishlar kamligi sababli, hozirda faqat inson tana a'zolarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi antropomorfik metafora sifatida baholanmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, insonning tana a'zolari, harakatlari, holatlari, kechinmalari va tuyg'ulariga xos xususiyatlar boshqa predmetlarga ko'chirilganda yuzaga keladigan lingvistik, sotsiopragmatik munosabatlar hamda sintaktik jarayonlarni antropomorfik metafora sifatida tahlil qilish tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, metaforalarning kognitiv-pragmatik tadqiqi va publitsistik diskurs asosida antropomorfik metaforalarni o'rganish masalasi ham tadqiqotning dolzarb obyektiga aylanmoqda.

Dunyo tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, inson tafakkurida olamning lisoniy manzarasi qadimiy qadriyatlar, ota-bobolarning o'g'itlari, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va dostonlardagi lof va mubolag'alar orqali shakllanadi. Bilishning asosiy vositasi sifatida metafora zamonaviy tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallaydi. Insonning atrof-muhitni anglash jarayonida tashqi narsa va hodisalarni nomlash yoki tasvirlashda inson tana a'zolari, ularning harakatlari va xususiyatlariga asoslangan lisoniy tasvirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv orqali real voqelikning antropomorfik asosda metaforik ifodalanishi til tafakkurining muhim hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida publitsistik matnlardagi antropomorfik metafora milliy tilning o'ziga xos xususiyatlari va ontologik mohiyatini aks ettiruvchi yorqin hodisalardan biri hisoblanadi. Bu hodisa o'zida mentallikni namoyon qilish imkoniyati kengligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda shuni takidlash joizki "milliy o'zligimizni anglash vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish...lozim"¹. Shu sababli, o'zbek tilshunosligida antropomorfik metaforani til va madaniyat, til va muloqot, til va ma'naviyat hamda til va ruhiyat mushtarakligi muammosi keskinlashgan bir paytda o'rganish, lingvistik tadqiq qilish va uning kognitiv-pragmatik tavsifini berish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda "Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi" mavzusidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018-yil, 29-dekabr.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar mazkur dissertatsiyaning zaruriyatini yanada kuchaytiradi. Publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning kognitiv-pragmatik tadqiqi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki antropomorfik metaforalar nafaqat badiiy matnlarda, balki jurnalistik diskurslarda ham keng qo‘llaniladi. Ularning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik sohalarida ham dolzarbdir. Shu bois, o‘zbek tilshunosligida bu masala yetarlicha tadqiq etilmaganligi sababli, ushbu mavzu lingvistik tadqiqotlar uchun yangilik va ilmiy qiymatga ega.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inson olamni idrok qilishda tildan foydalanar ekan, bunda lisoniy hodisalardan eng samaralisi metaforalardir. Til birliklari orasida aynan metaforalar qadimdan o‘rganib kelinadi, uning ahamiyatli ekanligini ham shundan bilish mumkin. Arastu davridan boshlangan metaforaga doir ilmiy izlanishlar bizning davrimizga qadar ko‘plab bosqichlarni bosib o‘tdi. Jahon tilshunosligida ham uning bir qator turlari o‘rganiladi. Jumladan, Y.D.Apresyan², O.I.Glazunova, D.Devidson, E.Kassirer, D.Lakoff, M.Djonson, E.Makkormak, X.Ortega-i-Gasset va boshqa olimlar tomonidan mazkur masala atroflicha o‘rganilgan.

Shuningdek, M.A.Arbib, N.D.Arutyunova, A.Vejbitskaya, R.D.Leng, E.Makkormak, I.P.Merkulov, M.Minskiy kabilar freymilar nazariyasi, assotsiativ

² Ю.Д. Апресян (Метафора в семантическом представлении эмоций // Вопросы языкознания. 1993. № 3) М.А. Арбиб (Метафорический мозг. – Москва, 1976), Н.Д. Арутюнова (Метафора и дискурс. Вступительная статья // Теория метафоры. – Москва, 1990; Типы языковых значений: Оценка. События. Факт. – Москва, 1988; Язык и мир человека. – Москва, 1999), А. Вежбицкая (Лексическая семантика в культурно сопоставительном аспекте // Семантические универсалии и описание языков. – Москва, 1999), О.И. Глазунова (Логика метафорических преобразований. – СПб., 2000), Д. Дэвидсон (Что означают метафоры // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990), Э. Кассирер (Сила метафоры // Теория метафоры. – Москва, 1990); Д. Лакофф, М. Джонсон (Когнитивная семантика // Язык и интеллект. – Москва, 1995; Метафоры, которыми мы живем // Теория метафоры. – Москва, 1990), Р.Д. Лэнг (Расколотое «я». СПб.1995), Э.Маккормак (Когнитивная теория метафоры // Теория метафоры. – Москва, 1990), И.П. Меркулов (Когнитивная наука // Новая философская энциклопедия в четырех томах. Т.2. – Москва, 2001); М. Минский (Остроумие и логика когнитивного и бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. – С. 291-292), Х. Ортега-и-Гассет (Две главные метафоры // Теория метафоры. – Москва, 1990), Дж. Серль (Метафора // Теория метафоры. – Москва, 1990), Ю.С. Степанов (В трехмерном пространстве языка. – Москва, 1995); Ф.Уилрайт (Метафора и реальность // Теория метафоры: Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1990), Р. Якобсон (Работы по поэтике. – Москва: Прогресс, 1989), О.Н. Лагута О.Н. Лингвометафорология: основные подходы // [http://www. Balkan Rusistics](http://www.BalkanRusistics). Статьи. Монографии. Метафорология. Теоретические аспекты. Ч.I. Г.2. § 3-5)

obrazlarga oid; J.Serl, Y.S.Stepanov, F.Uilrayt kabilar metaforalar, generativ semantika, metaforaning kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy, volyuntativ ta'sir ko'rsatish funksiyasiga doir; R.Yakobson, O.N.Laguta³ kabilar metaforologiyaning tadrijiy rivojlanishiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Respublikamizda esa M.Mirzayev, M.Mirtojiyev, M.Mukarramov, Z.Tohirov, S.Usmonov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayevlar⁴ va boshqa olimlar tomonidan metaforalar turli nuqtayi nazardan o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligining yangi bosqichida metaforaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, G.Qobuljonova, A.Xo'jamqulov, D.Xudayberganova, Sh.Maxmaraimova, D.Rustamova, A.Yuldashev⁵ kabi tilshunoslarning ilmiy kuzatishlari va shu asosda olingan ilmiy xulosalari ham o'zbek tilining metaforani nazariy asosda o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Biroq mavjud ilmiy ishlarda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot antropomorfik metaforalarni publitsistik uslubda yozilgan matn va diskurslarda o'rganib, ularning

³ Апресян Ю.Д. Метафора в семантическом представлении эмоций. Вопросы языкознания. 1995. – № 3. – С. 17-27; Арбиб М.А. Метафорический мозг. – Москва: Мир, 1976. – С. 296; Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Вступительная статья. Теория метафоры. Творчество и гармонизации личности: сборник научных статей. – Москва, 1990. – С. 5-32; Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. События. Факт. – Москва: Наука, 1988. – С. 388; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – С. 895; Вежбицкая А. Лексическая семантика в культурно сопоставительном аспекте. Семантические универсалии и описание языков. Пер. с англ. А.Д. Шмелева под ред. Т.В. Булыгиной. – Москва: Языки русской культуры, 1999. I-XII. – С. 780; Глазунова О.И. Логика метафорических преобразований. – Санкт-Петербург, 2000. – С. 190; Дэвидсон Д. Что означают метафоры. Теория метафоры. Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 173; Кассирер Э. Сила метафоры. Теория метафоры. Сборник статей – Москва: Прогресс, 1990. – С. 33; Лакофф Д. Когнитивная семантика. Язык и интеллект. – Москва: Прогресс, 1996. – С. 215; Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 2006. – С. 387-415; Лэнг Р.Д. Расколотое «я». – Санкт-Петербург: Белый Кролик. 1995. – С. 352; Маккормак Э. Когнитивная теория метафоры. Теория метафоры. Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 358; Меркулов И.П. Когнитивная наука. Новая философская энциклопедия в четырех томах. Т.2. – Москва, 2001. – С. 264; М. Минский. Остроумие и логика когнитивного и бессознательного. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. – С. 291-292; Ортега-и-Гассет Х. Две главные метафоры. Теория метафоры. Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 68; Серль Дж. Метафора // Теория метафоры. Сборник статей – Москва: Прогресс, 1990. – С. 308; Степанов Ю. В трехмерном пространстве языка. – Москва: Наука, 1985. – С. 336; Уилрайт Ф. Метафора и реальность. Теория метафоры: Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 82; Якобсон Р. Работы по поэтике. – Москва: Прогресс, 1987. – С. 464; Лагута О. Лингвометафорология: основные подходы. <http://www.Balkan.Rusistics>. Статьи. Монографии. Метафорология. Теоретические аспекты. Ч. I. Г. 2. – С. 185.

⁴ Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 267; Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 286; Mukarramov M. Metafora yasovchi o'xshatish vositalarining ma'nolari haqida. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1971. 2-son. – B. 51–53; Tohirov Z. Metafora leksema-sememasining pragmatik semasi. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1983. – № 1. – B. 74-77; Usmonov S. Metafora. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1964. 4-son, – B. 36; Aliqulov T. Polisemiyalarning hosil bo'lishi haqida. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1963. – № 6. – B. 42; O'zbek tili leksikologiyasi // Mas'ul muharrirlar: A. Hojiyev, A. Ahmedov. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 316; Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 15.

⁵ Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent: 2000. – B. 33; Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir / O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 85–88; Xudayberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropomorfik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent: 2015, – B. 64-74; Mahmaraimova Sh. Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti: Filol. fan. nomz. ... diss. – Qarshi, 2018. – B. 90-93; Rustamova D. Metaforik evfemizatsiya: Filol. fan. d-ri ...diss. – Andijon, 2013. – B. 104-108; Yuldashev A. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv aspekti (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. b-cha fals. d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – B. 47.

pragmatik qiymati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashni maqsad qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida ilmiy-nazariy muammolari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek publitsistik matnlarida antropomorfik metaforalarning kognitiv-pragmatik imkoniyatlarini o'rganish va publitsistik diskursda qanday ma'no va ta'sir kuchiga ega ekanligini ko'rsatish, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish, semantik, stilistik va kommunikativ funksiyalarini aniqlash hamda ularning milliy madaniyatga va janrga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyati, xususan, lisoniy vositalarning nutq vaziyatiga mos ifodalagan pragmatik ma'nosi, o'xshashlik asosida ko'chgan ma'no qirralarini jurnalistlar nutqini tadqiq qilish orqali ochib berish;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash mexanizmi turli uslubga doir matnlarda metaforalarning qo'llanilishi, ular anglatgan ko'chma ma'nolar ommabop uslubda o'ziga xos lisoniy manzara hosil qilishini dalillash;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalar va unga doir ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlarning lingvistik tahlili asosida tavsiflash, antropomorfik metaforalar publitsistik, ijtimoiy tarmoq manbalari asosida aniqlangan misollar orqali yondosh hodisalardan metaforalarni farqlash, ichki turlari va bajaradigan vazifalarini tasniflash;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning lisoniy xususiyati yoritilgan, ayniqsa, sport jurnalistikasida boshqa sohalarga qaraganda antropomorfik metaforalardan, shuningdek, metaforik ma'no ko'chishining boshqa turlaridan nisbatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti o'zbek tilidagi publitsistik matnlarda uchraydigan antropomorfik metaforalar.

Tadqiqotning predmeti publitsistik matnlarda qo'llanilgan antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlari. Bu jarayonda inson tanasi qismlari, his-tuyg'ulari yoki harakatlari orqali boshqa obyekt va hodisalarga o'xshatish asosida yuzaga kelgan metaforalarning ishlatilishini tahlil qilish.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyoslash, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, transpozitsion, transformatsion tavsiflash, sistem tahlil metodi, komponent tahlil metodi, differensial-semantik tahlil metodi va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyati, xususan, lisoniy vositalarning nutq vaziyatiga mos ifodalagan pragmatik ma'nosi, o'xshashlik asosida ko'chgan ma'no qirralari jurnalistlar nutqini tadqiq qilish orqali ochib berilgan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash mexanizmi turli uslubga doir matnlarda metaforalarning qo'llanilishi, ular anglatgan ko'chma ma'nolar ommabop uslubda o'ziga xos lisoniy manzara hosil qilishi dalillangan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalar va unga doir ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar lingvistik tahlili asosida tavsiflangan, antropomorfik metaforalar publitsistik, ijtimoiy tarmoq manbalari asosida aniqlangan misollar orqali yondosh hodisalardan farqlangan, ichki turlari va bajaradigan vazifalari tasniflangan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning lisoniy xususiyati yoritilgan, ayniqsa, sport jurnalistikasida boshqa sohalarga qaraganda antropomorfik metaforalardan, shuningdek, metaforik ma'no ko'chishining boshqa turlaridan nisbatan ko'proq foydalanilganligi aniqlangan. Ijtimoiy tarmoq matnlari muallifi ot so'z turkumiga doir, ya'ni tana a'zolariga bog'liq antropomorfik metaforalardan kam foydalanib, asosan, fe'l so'z turkumlari asosida insonga xos harakat va holatlarni boshqa mavjudotlarga ko'chirish orqali o'z tuyg'ularini bayon qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyati, xususan, lisoniy vositalarning nutq vaziyatiga mos ifodalagan pragmatik ma'nosi, o'xshashlik asosida ko'chgan ma'no qirralari jurnalistlar nutqini tadqiq qilish orqali ochib berishga doir ilmiy-nazariy ma'lumotlar nazariy tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, leksikografiya kabi fanlar bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarning mazmunan boyishiga xizmat qilishi asoslandi;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash mexanizmi turli uslubga doir matnlarda metaforalarning qo'llanilishi, ular anglatgan ko'chma ma'nolar ommabop uslubda o'ziga xos lisoniy manzara hosil qilinishi metaforalarda lug'aviy mazmunni yaratish imkoni kompyuter leksikografiyasida istiqbolli yo'nalish sifatida baholandi;

antropomorfik metaforalar va unga doir ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar lingvistik tahlili asosida tavsiflangan, antropomorfik metaforalar publitsistik, ijtimoiy tarmoq manbalari asosida aniqlangan misollar orqali yondosh hodisalardan farqlangan, ichki turlari va bajaradigan vazifalari tasniflash asosida tahlil texnologiyalari tomonidan qo'llaniladigan lug'at tavsiflari va shakliy modellarni integral yondashuv bosma lug'atlarning polifunksionallik muammosini hal qilishi ko'rsatib berilgan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning lisoniy xususiyati yoritilgan, ayniqsa, sport jurnalistikasida boshqa sohalarga qaraganda antropomorfik metaforalardan, shuningdek, metaforik ma'no ko'chishining boshqa turlaridan nisbatan ko'proq foydalanilganligi aniqlandi. Bu esa bugungi kunda muhim masalalardan biri antropomorfik metaforalarning lug'atini yaratish tamoyillarini ishlab chiqishga yo'l ochgan. Bunda tilning grammatik, leksik, kognitiv-pragmatik xususiyatlari hisobga olindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning lingvomadaniy, kognitiv va sotsiolingvistik jihatlari, uning kognitiv-

pragmatik mexanizmi, antropomorfik metaforaning lison va nutqqa munosabati, turli uslubga doir matnlarda metaforalarning qo‘llanilishi haqidagi xulosalarning yangiligi bilan belgilanadi.

Ilmiy va amaliy ahamiyat:

Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan qimmatli bo‘lib, o‘zbek jurnalistikasida metaforalarning qanday ishlashini va ularning ta’sirchanligini ochib beradi. Dissertatsiyada lug‘aviy birliklarni antropomorfik va diskursiv tahlil qilish, leksik imkoniyatlarning nutqiy voqelanish xususiyatlarini lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi nuqtayi nazaridan tekshirishda nazariy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham qimmatli bo‘lib, dissertatsiya o‘zbek jurnalistikasida antropomorfik metaforalarning muhimligi va ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot materiallari oliy ta’limda “Til nazariyasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Lingvokulturologiya”, “Pragmatik tilshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Korpus lingvistikasi”, “Matn tahlili” va “Matn tilshunosligi” kabi fanlarni o‘qitishda, shuningdek, ushbu fanlarga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Publitsistik matnlarda antropomorfik metaforaning lisoniy xususiyatlari va kognitiv-pragmatik tadqiqi masalalarini mushtaraklikda yoritish yuzasidan tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

publitsistik matnlarda antropomorfik metafora lison va nutqqa daxldorligi, lisoniy shaxs va lisoniy jamiyatning obektiv borliqqa munosabatini namoyon qilishi, lisoniy jamiyat antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatini jurnalistik nutqni tadqiq qilish orqali ochib berishga doir takliflaridan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2021–2023-yillarda bajarilgan “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2024-yil 23-yanvardagi 241/20-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 6084-son farmonida belgilangan o‘zbek tilida nomlar, atamalarni tartibga solish, lug‘atlar yaratish, xorijiy so‘z va atamalarga O‘zbekcha muqobillar topib, istemolga kiritish vazifasini bajarishda foydalanilgan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metafora lison va nutqqa munosabatiga ko‘ra turli ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlili asosida tavsiflangan, antropomorfik metaforalar publitsistik matn asosida aniq misollar orqali yondosh hodisalardan farqlangan, ichki turlari va bajaradigan vazifalari tasniflashga doir tavsiya va xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AMFZ-201908172 – “O‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-fevraldagi 04/1-201-son ma’lumotnomasi). Natijada grant loyihasi doirasida yaratilgan elektron platformaning ilmiy dalillar,

ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

publitsistik matnlarda antropomorfik metaforalarning lisoniy xususiyati yoritilgan, sport jurnalistikasida boshqa sohalarga qaraganda antropomorfik metaforalardan ko'proq foydalanilishi aniqlangan va monografik tadqiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida bajarilgan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" nomli grantni bajarishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 22-yanvardagi 36/0101-sonli ma'lumotnomasi). Natijada grant loyihasi doirasida yaratilgan elektron platformaning ilmiy dalillar, ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 2 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlar, 2 tasi xorijiy xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (shu jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi "Metaforalarning lisoniy tadqiqi" deb nomlangan va quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: *"Metaforalarni lingvistik, kognitiv-pragmatik o'rganish"*, *"Jahon tilshunosligida antropomorfik metaforalarning matn asosida tadqiq etilishi"*, *"Antropomorfik metafora tadqiqot obyekti sifatida"*.

Metafora lingvistik hodisa sifatida qadimdan ilmiy tadqiqotlarning markazida bo'lib kelgan. Bu atama ilk bor Aristotel tomonidan "Poetika" asarida qo'llanilgan va u metaforani so'z ma'nosining bir obyekt yoki hodisadan boshqasiga o'tkazilishi sifatida izohlaydi⁶. Aristotel metaforani "so'z ma'nosining jinsdan turga, turdan jinsga yoki turdan turga yoxud muqobillik asosida ko'chirilishidir" deb ta'riflaydi. O'z asarlarida metafora (yun. μεταφορά – "ko'chim") atamasini qo'llagan alloma uni lisoniy hodisa sifatida e'tirof etmaydi, shunga qaramay, uning mulohazalari tufayli metafora ilmiy iste'molga kirgan. Zamonaviy tilshunoslikda

⁶ Аристотель. Поэтика. – Л., 1927. – С. 39.

esa metafora nafaqat leksik vosita, balki inson tafakkuri va dunyoqarashining ifodasi sifatida qaraladi. “Kognitiv” va “konseptual” metafora atamaları 80-yillarning oʻrtalarida mahalliy tilshunoslar tomonidan qoʻllanila boshlandi. Kognitiv tilshunoslikdagi metafora, birinchi navbatda, ideal hodisa sifatida (til/nutqdagi moddiy koʻrinishlardan farqli oʻlaroq) “kognitiv metafora” va “konseptual metafora” terminologik nomlarini oldi⁷.

“Metafora” atamasi ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qoʻllangan⁸. Kvintilian metaforaga tabiat in’omi deb qaragan va “hech bir predmet belgilanmay qolmasligiga ta’sir koʻrsatadi” deya xulosa bergan⁹. Sitseron esa metaforaga tilda yetishmovchi ma’nolarni shakllantirish usuli sifatida yondashgan va oʻxshashlik asosida amalga oshadigan koʻchimni “tildagi soʻzning tegishli tushunchasi boʻlmaganda kuzatiladi” deb izohlagan¹⁰. Mumtoz ritorika esa metaforani me’yordan chetlashish – predmet nomining boshqa predmetga koʻchishi tarzida izohlaydi. Ushbu koʻchimning vazifasi leksik lakunani toʻldirish yoki nutqni boyitish va ritorikaning bosh maqsadi boʻlmish “ishontirish”ga xizmat qilishdir¹¹.

Oʻrta asrlar va Uygʻonish davrida metafora koʻproq ritorik vosita sifatida oʻrganilgan boʻlsa, XVII-XVIII asrlarda u tilshunoslik va mantiq doirasida tadqiq etila boshlandi. Masalan, John Loke metaforani “soʻzning noan’anaviy ishlatilishi”¹² deb ta’riflaydi va uning nutqdagi rolini oʻrganadi. Mark Tyorner va Jil Fokonye esa “Conceptual Blending” nazariyasini ishlab chiqib, metaforalarning qanday qilib yangi ma’nolarni yaratishga xizmat qilishini koʻrsatdilar¹³. Raymond Gibbs metaforani kognitiv va psixologik jihatdan oʻrganib, uning insonning hissiyotlari va tafakkuridagi rolini tahlil qilgan¹⁴. Zoltan Kovechesh esa metaforalarni lingvistik, madaniy va psixologik nuqtayi nazardan tasniflab, madaniyatlararo va universal metaforalar tushunchalarini rivojlantirgan¹⁵. Jorj Lakoff va Mark Jonson metaforalarni konseptual metaforalar (conceptual metaphors), ontologik metaforalar (ontological metaphors) va strukturaviy metaforalar (structural metaphors) kabi turlarga ajratganlar¹⁶. Ular bu turlar orqali tilning qanday qilib fikrlash va idrok etishga xizmat qilishini oʻrganganlar.

⁷ Lakoff G. *The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought*, edited by Andrew Ortony. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – Pp. 202-51

⁸ Барышников П.Н. Миф и метафора: опыт межпарадигмального анализа. Автореферат дисс. по – 09.00.01 (Онтология и теория познания). – Москва, 2008.

⁹ Античные теории языка и стиля. – Москва, 1936; Склярская Г.Н. Метафора в системе языка. – Санкт-Петербург: Наука, 1993. – С. 5.

¹⁰ Античные теории языка и стиля. – Москва, 1936; Склярская Г.Н. Метафора в системе языка. – Санкт-Петербург: Наука, 1993. – С. 5.

¹¹ Lakuna (fran. *lacune* – boʻshliq, chuqurlik; J.P. Vine va J. Derbelen termini) muloqot jarayonida muayyan madaniyatning boshqa madaniyat vakili tomonidan toʻliq yoki qisman anglashilmaydigan oʻziga xos milliy unsuru. Qarang: Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.

¹² Locke, J. *An Essay Concerning Human Understanding* (Vol. 1). – London: Thomas Bassett, 1690. – P. 412.

¹³ Turner, M., & Fauconnier, G. *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. – New York: Basic Books, 2002. – P. 119.

¹⁴ Gibbs, R.W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – P. 58.

¹⁵ Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – P. 91.

¹⁶ Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 33.

Dunyo tilshunosligida metaforani o'rganish va tadqiq etish rus tilshunosi O. Lagutaning tasnifi asosida shunday belgilanadi: 1. Antik metaforologiya (Aristotel, Filodem, Feofrast, Sitseron, Kvintilian); 2. Mediyeval metaforologiya (Isidor Sevilskiy, Beda Dostopochtenniy, Georgiy Xirobosk Filipp Melanxton); 3. Yangi davr metaforologiyasi; 4. XX asr metaforologiyasi¹⁷.

Metaforani jiddiy va chuqur tekshirish XX asrdagina hind, xitoy faylasuf va tilshunolarining asarlarini o'rganish evaziga amalga oshirila boshladi. Antik davr falsafasining tadqiq davri gullab-yashnagan XX asrda metafora tilning kommunikativ, nominativ, bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi. Bu vaqtda metaforani o'rganuvchi qiyosiy nazariya J. Serl va M. Blek tomonidan jiddiy tanqidga uchradi. J. Serl metaforani ikki semantik ma'noning verbal, ya'ni metaforik ifoda va aynan bo'lgan kontekstual qurshovning ta'sirlashuvi yoki oppozitsiyasiga bog'liq deb ta'kidladi¹⁸. M. Blek esa fanda birinchilardan bo'lib metaforani "qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzaga keltiruvchi" sifatida ta'rifladi¹⁹. Bu hol ko'plab tadqiqotchilarni semantik aloqadorlik borasidagi izlanishlarga boshladi. Ular, shuningdek, metafora o'xshashlikni ochmasdan, uni yaratadi, ya'ni metafora ilgari hech kimning xayoliga kelmagan ikki buyum o'rtasidagi o'xshash jihatlarni namoyish etadi, deya ta'kidladilar.

Publitsistik matnlar, ayniqsa, o'quvchiga ta'sir o'tkazish, uni muayyan fikr va qarashlarga yo'naltirish maqsadida ko'pincha metaforalarga tayanadi. Bu matnlar o'quvchilarni murakkab ijtimoiy va siyosiy masalalarni tushunishga yordam beradigan vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda asosiy maqsad axborotni ommaga sodda va tushunarli tarzda yetkazishdir. N.D. Arutyunova ta'kidlaganidek, publitsistik matnlar tilining asosiy xususiyati uning ta'sirchanligidadir, chunki bunday matnlar nafaqat ma'lumot berish, balki auditoriya ustida ma'lum bir ta'sir ko'rsatishni ham ko'zda tutadi²⁰. J. Fokonye va M. Tyornerning konseptual qorishma nazariyasi, publitsistik matnlar orqali turli g'oyalar va tushunchalarni bir-biri bilan bog'lash va yangi ma'nolar yaratishga imkon beradi²¹.

Metaforik ifodaning lingvistik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida ham dolzarb mavzulardan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar, ayniqsa, e'tiborga molikdir. O'zbek tilidagi metaforalarning tasnifi, ularning adabiy hamda nutqiy kontekstdagi roli, shuningdek, obrazli ifodalar orqali yuzaga kelgan frazeologik va leksik birliklarning semantik tahlili tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Jahon tilshunolaridan Roman Yakobson (1960) kommunikativ va poetik funksiyalarni ajratib ko'rsatib, tasviriy vositalarning poetik rolini tasdiqlaydi va ularning ko'chma ma'nolar orqali o'quvchiga ta'sirini o'rganadi²². Tasviriy vositalar adabiy matnlar qatorida publitsistik matnlarda ham keng qo'llaniladi. Bular orqali matndagi fikrlar obrazlilikka ega bo'lib, o'quvchiga

¹⁷ <https://www.twirpx.com/file/273520/>

¹⁸ Серль Дж. Метафора // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 308.

¹⁹ Блэк. Москва Метафора // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 52.

²⁰ Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс / Н.Д.Арутюнова // Теория метафоры / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой, М.А. Журиной. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 5-32.

²¹ Fauconnier, G., & Turner, M. *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. – New York: Basic Books, 2002. – P. 170-175.

²² Jakobson, R. Linguistics and Poetics: Closing Statement. In: *Style in Language*. – Cambridge: MIT Press, 1960.

ma'lum hissiy holat va fikr yetkaziladi. Tasviriy vositalarning publitsistik matnlardagi funksiyasi o'quvchini ta'sirlantirish va matnning emotsional ta'sirini oshirishdir. Tilshunoslar ta'kidlaganidek, bu vositalar nafaqat matnning estetik qiymatini oshiradi, balki u orqali o'quvchiga tushuncha va ma'lumot yetkazish samaradorligini oshiradi. Bunday tasviriy vositalarning ijtimoiy va siyosiy matnlarda axborotni ta'sirchan yetkazishdagi roli beqiyosdir. Ayniqsa, publitsistik janrning o'ziga xos stilistik xususiyatlarini inobatga olgan holda, metafora va personifikatsiya kabi vositalarning ijtimoiy kontekstdagi qo'llanilishi ularning semantik yukini kuchaytiradi hamda ommaga ta'sirchan tarzda murojaat qilish imkonini yaratadi. O'zbek publitsistik matnlarida, shuningdek, antropomorfik metaforalardan keng foydalaniladi. Bu uslubiy vosita nafaqat mazmunni yanada ta'sirchan va obrazli qilib ko'rsatadi, balki omma o'rtasida muayyan ijtimoiy va siyosiy xabardorlikni oshirishga xizmat qiladi. Antropomorfik metaforalar tilga o'ziga xos hissiy boyluk va tasviriy kuch bag'ishlaydi, shuning uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish muhimdir. Ular matnda quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Insonga xos xususiyatlarni ko'chirish; 2. Aniq va hissiy ta'sir yaratish; 3. Matnning uslubiy boyligini oshirish; 4. Semantik keng qamrov.

Tilda leksik tizimning muhim qismi o'simlik nomlarining lug'atidir. O'simlik dunyosida antropomorfik metaforik ko'chirishning asosi o'simlik yoki o'simlikning bir qismini inson tanasi qismlarining shakllari, ma'nolari, funksiyalari va pozitsiyalariga o'xshatishdir. Masalan:

"...qulupnayning lablari qizardi...". Bu misolda qulupnay mevalarining yuzidagi qizil rang lablarning qizarganiga o'xshatiladi, bu orqali qulupnaydagi rang o'xshashligi tasvirlanadi.

"...gulning yuzida tarqalgan nur...". Bu misolda gulning yuzidagi yorqinlik inson yuzidagi ifodalar bilan taqqoslanadi, guldagi yorug'lik yuz ifodasi orqali ko'rsatiladi.

"...sariq olma qoshlarini cho'zdi...". Sariq olmaning rangidagi o'zgarishlar qoshlarning o'zgarishi bilan bog'lanadi, olma rangidagi o'zgarish insonning kosmetik o'zgarishlari bilan taqqoslanadi.

"...uzumning peshonasi nurli...". Bu misolda uzumlarning o'ziga xos yoritilgan qismlari peshanadagi nur bilan taqqoslanadi.

"...ko'kzorning yelkaları kengaygan...". Bu misolda ko'kzorning keng tarqalgan o'simliklari yelkaning kengligi bilan bog'lanadi, bu orqali o'simlikning o'lchamlari tasvirlanadi.

Tadqiqotchilarning "metafora" tushunchasining mazmunini tavsiflashga turli xil yondashuvlari bir-biridan farq qiladi va bir-birini to'ldiradi. B. Golub "metaforaning an'anaviy ta'rifi metafora atamasining etimologik izohi bilan bog'liq (yunoncha metafora – uzatish)"²³. "Metafora – bu o'xshashlik asosida ismni bir obyektidan boshqasiga o'tkazish"²⁴. "M. Kojina tomonidan tahrirlangan stilistik ensiklopedik lug'atda metafora qandaydir o'xshashlik, o'xshashlik asosida obyekt yoki hodisani aniqlash uchun majoziy ma'noda ishlatiladigan ism, so'z yoki

²³ Голуб И.Б. Русский язык и культура речи: учеб. пособие / И.Б. Голуб. – Москва: Логос, 2003. – С. 432.

²⁴ Голуб И.Б. Русский язык и культура речи: учеб. пособие / И.Б. Голуб. – Москва: Логос, 2003. – С. 422.

nutq burilishlarining uzatilishini anglatadi”²⁵. D.E. Rozental va M.A. Telenkovalar lingvistik atamalar lug‘atida shunga o‘xshash ta’rif berishadi: “Metafora – bu ikki obyekt yoki hodisaning qandaydir o‘xshashligi asosida so‘zni majoziy ma’noda ishlatish”. Ushbu ta’rif L. Kasatkina tomonidan tahrirlangan rus tilidagi qisqa ma’lumotnomada ko‘rsatilgan: “metafora – bu ismni o‘xshashlik asosida bir obyektidan (hodisa, harakat, atribut) boshqasiga o‘tkazish”²⁶. N.V. Valginaning ta’kidlashicha, hissiyotlarning o‘xshashligi, baholari asosida nomlarni uzatish ham mumkin²⁷. T.I. Vendinaning so‘zlariga ko‘ra, metafora mavhum tushunchalarni nomlashda, shuningdek, xarakterli xususiyatlar va fazilatlar bo‘yicha shaxslarning ismlarida ishlatilishi mumkin (tulki ayyor, xushomadgo‘y odam, sher kuchli, jasur odam). Bunday holda, metaforik uzatish tashqi emas, balki ichki o‘xshashlik bilan amalga oshiriladi²⁸. A.A. Reformatskiy shunga o‘xshash nuqtayi nazarga ega. Tilshunos ichki xususiyatlarga ishora qiladi, ya’ni o‘xshashlik tashqi belgilar emas, balki hislar, taassurotlar yoki baholashlardir. Ekspansiv ravishda metafora – bu so‘zlarni bilvosita ma’noda ishlatishning har qanday turi”²⁹.

Shunday qilib, D.E. Rozental metaforalarni ma’no uzatish intensivligi bo‘yicha tasniflashni taklif qiladi. L.L. Kasatkin va I.B. Golub kelib chiqishi bo‘yicha tasniflashni taklif qiladi. E.I. Dibrova obrazlarning mavjudligi yoki yo‘qligi bilan tasnifdan foydalanadi, unga ko‘ra nominativ, kognitiv va majoziy metaforalar ajratiladi. Yuqoridagi tasniflarga ko‘ra, bizning ishimiz antropomorfik metaforani o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, u *o‘chirilgan* yoki *o‘lik* yoki *umumiy til* (toshlangan) metafora va *nominativ* metaforani anglatadi. Semantik jihatdan esa, bu metaforalar insoniy xususiyatlarni boshqa obyektlar bilan bog‘lash orqali mazmun va hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, publitsistik matnlarda jonli tasvir va hissiy javoblarni uyg‘otish orqali o‘quvchilarga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi. V. Teliya ta’kidlaganidek, metaforalarning antropometrikligi, ya’ni insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarini yangi narsalarni o‘lchash uchun qo‘llashi – madaniy qadriyatlar va stereotiplar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida turli tillarda va madaniyatlarda qanday metaforalar ishlatilishini belgilaydi³⁰. O‘zbek tilida ishlatiladigan metaforalar ko‘pincha jamoaviy his-tuyg‘ular va munosabatlarni aks ettiradi. Boshqa tomondan, o‘zbek matnlarida madaniy konnotatsiyalarga ega bo‘lgan antropomorfik metaforalar keng qo‘llaniladi. Biroq metaforalarni keng o‘rganishga qaramay, antropomorfik metaforalarni turli til an’analari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilishda sezilarli bo‘shliq mavjud. Ko‘pgina tadqiqotlar mintaqaga yoki tilga xos bo‘lib, ushbu topilmalarni sintez qiladigan keng qamrovli global istiqbolga ehtiyoj qoldiradi. Bu bo‘shliq, ayniqsa, G‘arb va Sharq tilshunoslik an’analarni solishtirishda yaqqol namoyon bo‘ladi, bu yerda

²⁵ Кожина М.Н. Стилистика русского языка: учеб. пособие для студентов пед. ин-тов / М.Н. Кожина. 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Просвещение, 1993. – С. 224.

²⁶ Касаткин Л.Л. Краткий справочник по современному русскому языку / Л.Л. Касаткин, Е.В. Клобуков, П.А. Лекант. – Москва: Высшая школа, 1991. – С. 21-23.

²⁷ Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – Москва, 2001. – С. 334.

²⁸ Вендина Т. И. Средневековый человек в зеркале старославянского языка. – Москва: Индрик, 2002.

²⁹ Лингвистический энциклопедический словарь. Главный редактор. В.Н.Ярцева. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – С.15.

³⁰ Телия В.Н. Метафора как модель смысла производства и её экспрессивно-оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – Москва: Наука, 1988. – С. 26-51.

metaforik iboralar madaniy va kognitiv tafovutlar tufayli sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Global tahlilning yoʻqligi ushbu metaforalarning fikrlash jarayonlari va turli madaniy kontekstlarda muloqotga qanday taʼsir qilishini tushunishimizga xalaqit beradi. Qolaversa, oʻzbek tilidagi publitsistik matnlarda siyosiy nutq tarkibida antropomorfik metaforalardan foydalanish hollari yuqori chastotaga ega ekani kuzatiladi. Ushbu holat, oʻz navbatida, metaforaning siyosiy qarashlarni shakllantirish hamda jamoatchilik ongiga taʼsir koʻrsatishdagi strategik vosita sifatidagi funksiyasini namoyon etadi. Bu xulosa jahon miqyosida kuzatilayotgan umumiy tendensiyalar bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, soʻnggi yillarda olib borilgan kuzatuvlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek jurnalistikasida antropomorfik metaforalarning qoʻllanilishida sezilarli evolyutsiya kuzatilmoqda. Ular tobora nozikroq, madaniy-ijtimoiy kontekstga moslashtirilgan obrazlar bilan boyitilmoqda. Bu siljish metaforik tilning dinamik xususiyatini va uning yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga moslashishini taʼkidlaydi. Shuningdek, statistik tahlil shuni koʻrsatadiki, antropomorfik metafora oʻzbek publitsistik matnlarining 30% ga yaqinida keng tarqalgan, siyosiy va iqtisodiy maqolalarda sezilarli oʻsish kuzatilgan.

Shunday qilib, metaforaning nutqda ishlatilishining asosiy qoidalari anglab olindi, metafora tushunchasi til birligi deb belgilandi. Biroq tilshunoslikda antropomorfik tadqiqotlar olib borilayotgan boʻlsa-da, metaforalarning antropomorfik turi maxsus tadqiq etilayotgani yoʻq. Antropomorfik metaforalarni turli diskurslar bilan bogʻlab oʻrganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ishning ikkinchi bobi “Publitsistik diskursda antropomorfik metaforaning kognitiv tabiati” deb nomlangan boʻlib, u “*Antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlari*”, “*Antropomorfik metaforalarning publitsistik diskursdagi ijtimoiy ahamiyati*” va “*Turli xil publitsistik janrlardagi antropomorfik metaforalarning ifodalanishi*” boʻlimlaridan iborat.

Antropomorfik metafora publitsistik nutqda ham, badiiy nutqda ham yuqori darajadagi maʼlumot bilan ajralib turadi, chunki u nafaqat tabiat obyektlari va hodisalari, balki insonning oʻzi haqida ham tasavvurlarni modellashtiradi.

Antropomorfik metaforalar maʼlumotni qanday konsepsiyalash va tushunishni tizimlash orqali fikrlash shakllariga taʼsir qiladi:

Mavhum tushunchalarni shaxslashtirish: mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlarni bogʻlash orqali antropomorfik metafora oʻquvchilarning bu tushunchalarni qanday idrok etishi va ular bilan oʻzaro munosabatini shakllantiradi.

Hissiy aks sado: antropomorfik metaforalar mavhum tushunchalarni inson tajribasi bilan bogʻlash orqali hissiy javoblarni keltirib chiqaradi. Gibbs (1994) fikriga koʻra, bu hissiy rezonans oʻquvchilarning tarkibga qanday munosabatda boʻlishiga taʼsir qilishi mumkin³¹, bu esa kuchli unosabatlar va fikrlarga olib keladi.

Jurnalistikada antropomorfik metaforalardan foydalanish muammolarni

³¹ Gibbs, R.W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.

o'ziga xos yo'llar bilan shakllantirish orqali idrokni shakllantiradi:

Ramka va tarafkashlik: Metaforalar orqali reallikni ramkalash jarayoni muayyan masalalarning ba'zi jihatlarini yoritish, boshqalarini esa soya ostida qoldirishga xizmat qiladi. Bu hodisa tarafkashlikni shakllantirishi mumkin. Masalan, "hukumatning qo'li og'ir" degan metafora siyosatning qat'iy va bosimga asoslangan jihatini ajratib ko'rsatadi. Bu misolda hukumat inson xususiyatlari bilan bog'lanib, "qo'l" va uning "og'irligi" orqali hukumatning qattiqqo'l yoki repressiv ekanligi tasvirlanadi. Bu metafora o'quvchiga hukumatning siyosati yoki harakatlarini muayyan kontekstda taqdim etadi va uning samaradorligi yoki adolatliligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Yo'naltiruvchi talqin: Antropomorfik metaforalar tanish mos yozuvlarni taqdim etish orqali talqinni boshqaradi.

Inson a'zolari va unga bog'liq bo'lgan boshqa hodisalar keyinchalik ko'chishga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ko'z dastlab insonning ko'rish a'zosini, undan keyin tabiatda uchraydigan boshqa o'xshash jismlarni ifodalay boshlagan. *Uzukning ko'zi, ignaning ko'zi, buloqning ko'zi* va boshqalar.

1. Antropomorfik metafora: "...osmon ko'zi yoshga to'ldi..."

Pragmatik vazifa: Bu metafora orqali muallif tabiatni inson his-tuyg'ulari bilan bog'laydi, ob-havoning yomonlashishi yoki yomg'ir yog'ishi insonning ko'z yoshi bilan ifodalanadi. Bu o'quvchining ichki his-tuyg'ularini uyg'otadi, ob-havo hodisalariga insoniy emotsiyalar orqali yondashishga imkon beradi.

Kognitiv ta'sir: "Ko'z yoshga to'lish" iborasi o'quvchining his-hayajonini uyg'otadi va osmonni insonning his-tuyg'ulari bilan bog'laydi. Bu holatda tabiat hodisasi insoniy qiyofa kasb etadi, bu esa hodisani emotsional tarzda tushunishni osonlashtiradi.

Kommunikativ strategiya: Muallif bu metafora orqali o'quvchi his-tuyg'ulariga ta'sir qilishni maqsad qiladi. Tabiiy hodisalarga nisbatan insoniy munosabatni shakllantirish orqali o'quvchiga chuqurroq tushuncha bera oladi va matnga hissiy urg'u beradi.

2. Antropomorfik metafora: "...maydonda ustunlik raqibning qo'liga o'tdi..."

Pragmatik vazifa: Bu metafora orqali sportdagi kuch va ustunlik inson qo'liga beriladi, ya'ni raqibning vaziyatni nazorat qilishini ifodalaydi. O'quvchi sport kontekstida bu metaforani osongina anglab, ustunlikni raqibning nazorati ostida tasavvur qiladi.

Kognitiv ta'sir: Inson qo'li orqali kuch va qudratni ifodalash o'quvchining tajribasiga yaqin, shuning uchun bu metafora orqali sportdagi kuch va harakatlar aniqroq va jonli tasvirlanadi.

Kommunikativ strategiya: Sport tahlilchisi o'quvchining tushunchasini kuchaytirish va voqelikni yaqqolroq ko'rsatish uchun bunday metaforadan foydalanadi, bu esa sport hodisalarini tushunishni osonlashtiradi.

3. Antropomorfik metafora: "...davlatning yuragi to'xtasa, barcha sohalar izdan chiqadi..."

Pragmatik vazifa: Bu metafora davlatning asosiy tizimlarini inson yuragi bilan bog'laydi va davlat tizimi ishidan chetga chiqsa, butun tizim ishdan chiqishini ifodalaydi. O'quvchi davlatni tirik organizm sifatida tushunib, uning samaradorligini inson organizmining hayotiy faoliyatiga o'xshatadi.

Kognitiv ta'sir: yurakning to'xtashi bilan bog'liq metafora orqali davlatning harakatlari va funksiyalari yanada jonliroq tasavvur qilinadi. Bu orqali davlatning ichki tizimlari oson tushuniladi va tizimning qanday ishlashi yanada yaqqolroq aks ettiriladi.

Kommunikativ strategiya: matn muallifi davlatning ichki vaziyatlarini jonli tasvirlash orqali o'quvchining davlat tizimi haqida to'liqroq tushuncha hosil qilishiga yordam beradi.

